



ABOUT THE KOZOYOGLI CLAN

A. Yarkulov

associate professor, Ph.D

Oriental University

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: yorqulov_a@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: clan, Alti ota Kazakh, Oghuz, Turkman, Turk, Azerbaijan, Uzbek, Component, ethnos, Uzbek-Turkman.

Received: 17.11.24

Accepted: 19.11.24

Published: 21.11.24

Abstract: The article talks about the origin of the Alti ota Qazoyogli, one of the 92 clans of the Uzbek people, a region of the Uzbek-Turkmen, and their spread over wide areas. The six-father Qazoyogli clan was one of the ancient clans and was a part of the Oguz. Later, it participates as a component in the formation of Uzbek, Turkmen, Turkish, Azerbaijani, Gagauz and other nations.

QOZOYOQLI URUG‘I HAQIDA

A. Yarkulov

dotsent, PhD

Oriental universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: yorqulov_a@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: urug‘, Olti ota Qozoyoqli, O‘g‘uz, Turkman, Turk, Ozarboyjon, O‘zbek, Komponent, etnos, O‘zbek-turkman.

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalqining 92 urug‘ining biri o‘zbek-turkmanlarining bir aymog‘i Olti ota Qozoyoqlining kelib chiqishi, keng hududlar bo‘ylab tarqalishi haqida so‘z yuritiladi. Olti ota Qozoyoqli urug‘i qadimiy urug‘lardan bo‘lib, o‘g‘uzlarning bir qismi edi. Keyinchalik o‘zbek, turkman, turk, Ozarboyjon, Gagauz va boshqa xalqlarning shakllanishida komponent sifatida qatnashadi.

О КЛАНЕ КОЗОЁГЛИ

А. Яркулов

доцент, PhD

Oriental университет

Ташкент, Ўзбекистан

E-mail: yorqulov_a@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: род, Алты ата Казаяклы, Огуз, Туркман, Тюрк, Азербайджан, Узбек, компонент, этнос, Узбек-Туркмен.

Аннотация: В статье говорится о происхождении Алты ата Казаяклы, одного из 92 родов узбекского народа, региона узбекско-туркмен, и их распространении на обширных территориях. Род Алты ата Казаяклы был одним из древних родов и входил в состав огузов. В дальнейшем он участвует как составная часть в формировании узбекского, туркменского, турецкого, азербайджанского, гагаузского и других народов.

Kirish. O‘zbek xalqi 92 urug‘dan tashkil topgan bo‘lib, uning shakllanishi nihoyatda murakkab va uzoq davrni o‘z ichiga oladi. O‘z tarixi davomida bir necha marta yirik komponentlar (tarkibiy qism) qo‘shilishi natijasida etnik vat il jihatidan o‘zgarishlar ro‘y bergan. Ayrim urug‘larning kelib chiqish tarixi unutilgan, yoki o‘rganilmasdan qolib ketgan. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek xalqi etnogenezidagi o‘rganilishi zarur bo‘lgan va dolzarbligicha qolayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbek-turkmanlarining tarkibiga kirgan Olti ota Qozoyoqli urug‘i tarixi ham kam o‘rganilgan etnik birliklar sirasiga kiradi. Ular “qazayaqli” nomi ostida hozirgi turkiy (turk) xalqlarining ko‘pchiligi tarkibida uchraydi va O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya federatsiyasi va Moldova respublikasining Gagauz yeri avtonom hududida hamda boshqa mamlakatlarda yashab kelmoqda. Ushbu tadqiqotimizda Olti ota Qozoyoqli urug‘ining kelib chiqishi haqida ba‘zi mulohazalarimizni bayon etamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek-turkmanlarining kelib chiqishi haqida bir qator manbalarda ma‘lumotlar berilgan. Olti ota qozoyoqli urug‘i O‘zbek-turkmanlari tarkibida bo‘lganligi uchun bu manbalar ularga ham tegishli hisoblanadi. Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar orasida Abu Rayhon Beruniyning “Minerologiya” asari alohida o‘rin tutadi. Uning ahamiyati shundaki, bu asarda “turkman” so‘zining kelib chiqishi xolislik bilan yoritilgan. Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai tarokima” asarida ham “turkman” so‘zining kelib chiqishiga e‘tibor qaratilgan, lekin to‘g‘ridan-to‘g‘ri fors tilidan olib “turklarga o‘xshash” deb tariflangan. Umuman, Abulg‘ozi Bahodirxonning asarlarida Chingiziylarni ulug‘lash va ideallashtirishga harakat qilingan. Buni albatta, zamonasiga nisbatan tabiiy hol deb qarash kerak.

Mahmud Qashg'ariyning "Devoni lug'at ut-turk" asari turkman etnonimining kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlari bilan alohida ahamiyatga ega. Uning asarida turkman etnosi haqida juda ko'p va hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan faktlar bor. Biz maqolamizda ularning ayrimlaridan foydalandik xolos.

Shuningdek, o'zbek xalqining shakllanishi, urug'lari haqida yozib qoldirgan ba'zi tarixchi olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan ham foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy muammoga sivilizatsion yondashuv asosida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlil kabi usullar yordamida O'zbekiston hududida urug'larning shakllanishi jarayoni manbalar asosida tarixiy tahlilga tayangan holda atroflicha tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi paytda "Yigirma to'rt ota turkman", "O'zbek-turkmanlari" va "Nurota turkmanlari" kabi nomlar bilan atalgan urug' o'zbek xalqining 92 urug'idan biridir. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki turkman nomi turkman millatidan ancha oldin paydo bo'lgan. Beruniyning "Minerologiya" asarida yozishicha, "avvalgi turklarga o'xshab islom dinini qabul qilgan turklar turkmanlar" deyilgan [1, 239]. Abulg'ozzi Bahodirxon "Shajarai tarokima" asarida to'g'ridan-to'g'ri turklarga o'xshash degan forscha so'zdan, ya'ni "turkmonand" so'zidan olingan deb ko'rsatadi [2, 15]. Fikrimizcha, Abulg'ozzi Bahodirxon birmuncha yanglish fikr bildirgan. Chunki, tarixdan ma'lumki, qadimdan turk xalqlari o'z hayotida muhim voqealar, tub burilishlar bo'lgan paytlarda butun xalq nomini yo'lboshchilari nomlari bilan atash odati bo'lgan. Vengr sayyohi herman Vamberining shunday so'zlari bor: "Turk xalqining qadimdan qolgan bir odati bor: agar hukmdorlardan bittasi mamlakatni yaxshi idora qilsa yoxud mamlakatga yangi bir usul va tartib kiritib, o'ziga xos xizmat ko'rsatsa, uning nomini mangu qoldirishga intiladi [3, 52]". Masalan: O'zbekxon davrida islomni qabul qilgan turklar o'zbeklar, yirik muvaffaqiyatga erishgan paytlarida Saljuqiylar, Usmoniylar kabi nomlar bilan atalib kelgan.

Turkmanlar Nurotaga Sirdaryo bo'ylaridan ko'chib kelgan va IX-X asrlarda ularning Nurotadan boshqa hududlarga ko'chishi boshlandi. Ayrim guruhlar XV-XVI asrlarda Nurotaga ko'chib kelgan (Mangishlau), boshqalar – XVII asrda (ersari) [4, 214].

Bu haqda XIX asrning 60-yillarida 1868-yilda Nurota turkmanlariga tashrif buyurgan sharqshunos olim V.V.Radlov shunday xabar bergan: "Turkmanlar xuddi Zarafshon vodiysi aholisi kabi o'troq yashaydilar" [4, 216].

Bu yerda saljuqiylar harakatidan beri hozirgi O'zbekistonning janubida yashab kelgan turkmanlardan tashqari, yaqinda kelib chiqqan turkman guruhlari ham yashaydi [4, 215].

Bizningcha, “yaqinda kelib chiqqan” degan ibora urug‘ va qabilalarning qayta guruhlanishi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Mahmud Qashg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘at ut-turk” asarida ham ma’lumotlar berilgan. U turkmanlarni o‘g‘uzlarning islom dinini qabul qilgan qismi sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘g‘uzlarning 24 ta asosiy urug‘larini birma-bir sanab o‘tadi [5, 89-91]. Ularning tarkibiga kiruvchi kichik urug‘lar haqida esa ma’lumot berilmagan. Qizig‘i, hozirgi Nurota tog‘ tizmasi atroflarida yashovchi turkmanlar ham xuddi shunday 24 ta urug‘ga bo‘linib yashaydi.

Nurota turkmanlari ikki shahobchadan iborat: 1. “Yigirma to‘rt ota turkman” (Olti ota qozoyoqli ham uning tarkibida) 2. Besh ota mang‘ishlov. Bu urug‘larning “Devoni lug‘at ut-turk”da ko‘rsatilgan urug‘larning qaysi biriga mansubligini aniqlash maqsadida bir qancha manbalarga murojaat qilamiz.

Qozoyoqli nomi o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, oltoy, boshqird, tatar, qrim tatar, gagauz, turk xalqlarining shajaralarida uchraydi [6].

Shuningdek, ozarbayjonlarning “Doqquz Bitik” manbalarida ham “qazayaqli” urug‘lari va tamg‘alari hamda ma’umotlar keltirilgan [7, 139].

O‘zbeklardan boshqa hamma turkiylar “qozoyoqli” so‘zini “qazayaqli” shaklida talaffuz qiladi. Aksariyat turkiy etimologlar “qozoyoqli” so‘zini bir xilda “g‘oz-oyoq-li” yoki “qaz-ayaqli” ya’ni “g‘oz” va “oyoq” so‘zlari hamda “li” egalik qo‘shimchasi birikuvidan hosil bo‘lgan, deb hisoblaydilar. Bu fikr hamma turkiylarda to‘g‘ri anglashiladi. Chunki qadimgi turkiy tilda ham “g‘oz” “qaz” shaklida yozilgani va talaffuz qilingani “Devoni-lug‘atit turk”dan ma’lum. Qolaversa, qozoyoqlilarning qadimiy tamg‘asi ham aynan g‘oz oyog‘iga, to‘g‘rirog‘i panjasiga o‘xshashdir [6].

Dunyo qozoyoqlilarining eng katta qismi turk o‘laroq islom dinini qabul qilgan. Yevropada yashayotgan, gagauzlar tarkibiga kiruvchi qozoyoqlar nasroniylik dinida qolishgan. Oltoy va Sibir qozoyoqlilari orasida qadimgi e’tiqodlarni saqlab kelayotganlari, jumladan tangrichilik dinidagilari ham bor [6].

Gagauz tarixchisi Dionis Tanasoğlu gagauzlarni kelib chiqish tarixini “.... saljuqiylar va gag‘uzlar O‘rta Osiyodagi o‘g‘uzlarning XI asr boshlarida ajralib chiqqan ikki tarmog‘idir” [8] deb ta’riflaydi.

Moldaviyadagi gagauzlar qishloqlarining biri Kazayakliya (46°00’37” s. sh. 28°39’46” v. d) deb atalishi ham, ularning tarkibida qozoyoqli urug‘ining bo‘lganligidan darak beradi [9, 163].

O‘zbekistonda ham Qashqadaryo viloyati, Yakkabog‘ tumanida Qozoyoqli qishlog‘i bor. Qoraqalpog‘iston Respublikasida Nukus va Xalqobod shaharlari oralig‘ida Kazayakli ovuli mavjud.

Qazayak (bosh. Kazayag) — ([54°58'36" sh.k. 57°07'43" sh.u.](#)) Rossiya Federatsiyasi Boshqirdiston Respublikasining Iglin tumanidagi qishloq. Krasnovoshodskiy qishloq kengashi tarkibiga kiradi [10].

Qozoyoqlilar tafakkur darajasi yuksak rivojlangan etnos sanaladi. Shuning uchun ular orasidan ilmlilar ko‘p chiqqan. Ayni sabab bilan sobiq Buxoro amirligi hududlarida “qozoyoqli” etnonimini “qozi” so‘zidan kelib chiqib “qozi+oyoqli” deb ta’riflaganlar ham yo‘q emas. Ammo bu ta’rif turkiy qoliplariga sig‘maydi, chunki “qaz”- g‘oz ekanligiga shubha yo‘q. Qolaversa, “Qozoyoqli” so‘zi “qozi” tushunchasidan ancha oldinroq paydo bo‘lgan va boshqa cho‘michli, kesovli, sirg‘ali urug‘laridagi kabi “li” egalik qo‘shimchasini yetaklab keladi [6].

Qozoyoqli urug‘i vakillari asosan o‘zbeklar va turkmanlar yashaydigan Jauzjon, Balx va Qunduz viloyatlarining Amudaryoga yaqin hududlarida istiqomat qilishar ekan [6].

Qozoyoqlilar alohida yirik turkiy urug‘lardan sanalsa-da, o‘sha davrlarda (ya’ni, sovetlar davrida – muallif) ikkiga bo‘linib qolgan. Denov bekligiga qo‘nim topganlar juzlar tarkibiga, Sherobodga joylashganlari qo‘ng‘irotlar tarkibiga subetnos sifatida kirgan. Ammo Afg‘oniston hududiga o‘tganlari etnik nomini saqlab, boshqa urug‘lar tarkibiga kirmagan [6].

Nurota vohasi etnoslari qatorida muhim o‘rin tutgan o‘zbek turkmanlari (yoki Nurota turkmanlari) asosan 2 ta yirik urug‘-jamoat uyushmasi “olti ota g‘(q)ozoyoqli” va “besh ota mang‘ishlov”ga bo‘lingan [11, 43].

“olti ota g‘ozoyoqli”lar esa oytamg‘ali, qo‘shamg‘ali, qonjig‘ali, bo‘gajilli, g‘ozoyoqli urug‘lariga bo‘lingan. “Nurota turkmanlari”ning etnologik holatini o‘rgangan V. N. Moshkova ularning barcha tarmoqlari yana olti urug‘ ichida kichik urug‘-jamoalarga bo‘linishini ko‘rsatgan [11, 43].

Shu bilan birga “yigirma to‘rt ota turkmanlari” urug‘ nomlari asosida paydo bo‘lgan etnotoponimik obyektlarni qayd etgan [11, 43].

Ne‘matulla Elmurodovning “Zarafshon vohasi o‘zbek xalqi etnik guruhlarini” kitobida Quyuzg‘un–Beklarsoy, Qorong‘iovul, Jala qishloqlarida yashagan [12, 93].

Biz esa ushbu ma’lumotga qo‘shimcha qilmoqchimiz. Quyuzg‘un urug‘i o‘z navbatida quyidagi tarmoqlarga bo‘linadi: 1. Beklar 2. Oqbaqon 3. Alpqora 4. Jarg‘oq 5. Oltiayg‘ir. Quyuzg‘un esa Olti ota Qozoyoqli urug‘ining bir tarmog‘i bo‘lgan.

Ular hozirgi paytda shunday joylashishgan. Beklar Bozorjoy, Beklarsoy va Qorong‘iovul qishloqlarida, Oqbaqon Qorong‘iovulda, Alpqora Qorong‘iovul, Jala, Noqi qishloqlarida,

Jargʻoq Koriz, Qorongʻiovul, Jala qishloqlarida, Oltiyagʻir–Jarqoʻton, Oqtosh, Yongʻoqli qishloqlari yashashadi.

Xulosa. Tadqiqotimiz natijasida Olti ota Qozoyoqli urugʻining tarixini yaqin oʻtmishdan emas, balki ming yillar oldingi oʻgʻuzlarning shakllanishi davridan izlash kerak degan xulosaga keldik. Chunki, bu urugʻ X asrda oʻgʻuzlar davlatining tashkil topgan vaqtida ham mavjud boʻlganligi, Saljuqiylarning shakllanishida asosiy komponent sifatida qatnashganligi va hozirgi kunga qadar saljuqiylar dastlab yashagan hududlarda saqlanib qolganligi ham shunga ishora qiladi. Qazayak urugʻining Gagauz xalqi tarkibida saqlanib qolishi va oʻz navbatida gagauzlar oʻgʻuzlarning bir qismi boʻlganligi Olti ota Qozoyoqli urugʻining qadimiy urugʻlardan biri ekanligining isbotidir.

Adabiyotlar

1. Беруний А. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минериология). Санкт-Петербург, 2011. Стр.239.
2. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. Тошкент, 1995, 15-бет. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1990, 52-бет.
4. Шигабдинов Р. Туркмены. Этнический атлас Узбекистана. Институт "Открытое Общество" — Фонд содействия — Узбекистан, 2002. 452 страницы с иллюстрациями. Совместное издание «ИООФС — Узбекистан» и ЛИА, Р. Элинина, 2002. Стр. 214.
5. Маҳмуд Қашғарий. Девони луғат ут-турк. ЎзФА нашриёти, 1960, 89-91-бетлар. www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. Бўронов А. Эллик йилда эл бўлак ёки қандай қилиб козоёқлилар бир-бирларини танимай қолди. <https://tarjumon.uz/ellik-yilda-el-bolak-yoki-qanday-qilib-qozoyoqlilar-bir-birlarini-tanimay-qoldi/>
7. «Doqquz Bitik» Azərbaycan türklərinin islamaqədər tarixi. 139-бет.
8. Dionis TANASOĞLU. Gagauzya Tarihi. <http://www.altayli.net/gagauzlar.html>
9. Червенков Н. Пантелеймон Семенович Боканчо: «Гагаузы – редкий и своеобразный народ Бессарабии». Историческа българистика в Република Молдова. Сборник. Кишинев, 2018. Стр. 163.
10. Википедия. Казаяк.
11. Қурбонов Х., Ахмедов Р., Исмоилзода Ш., Нарзуллаев У., Тоғаев З. Нурота тумани кеча ва бугун. “САННОФ”, 2020. 43-бет.
12. Элмуродов Н. Зарафшон воҳаси ўзбек халқи этник гуруҳлари. 2008, Самарқанд, 93-бет.